



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI
SAQLASH
VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM,
FAN VA
INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



TOSHKENT
FARMATSEVTIKA
INSTITUTI

25

oktyabr 2023-yil

IV

Xalqaro
ilmiy-amaliy
anjuman

“FARMATSEVTIKA SOHASINING BUGUNGI HOLATI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR”

IV XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MATERIALLARI

(Professor S.N.Aminovning xotirasiga bag'ishlanadi)

МАТЕРИАЛЫ IV МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ, “СОВРЕМЕННОЕ
СОСТОЯНИЕ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ:
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ”

(Посвящается памяти профессора С.Н.Аминова)

ABSTRACT BOOK OF THE IV INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
“MODERN PHARMACEUTICS: ACTUAL PROBLEMS
AND PROSPECTS”

(Dedicated to the memory of Professor S.N. Aminov)

TOSHKENT – 2023

Фитопардаларнинг физик-кимевий ва механик хоссаларини ўрганиш натижаларига кўра фаол моддаларнинг мўътадил концентрацияси асосланди: гемостат суюқ экстракт- 5% ва хлоргексидин биглюконат 0,02 %.

TUKLI BARGLI XANDELIYA, DORIVOR TIRNOQGUL, TO‘Q QIZIL EXINATSEYA SAQLOVCHI SURTMA TARKIBINI ISHLAB CHIQISH

Habibullayeva N. H., Ziyamuhamedova M.M.

Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent sh., O‘zbekiston Respublikasi

Dolzarbliigi. Bugungi kunda dunyo miqyosida o‘simlik xom ashyolaridan tayyorlangan dori preparatlariga bo‘lgan talab keskin ortib bormoqda. Chunki, dorivor o‘simliklardan tayyorlangan dori preparatlari allergen, mutagen, kanserogen kabi ta’sirlardan xoliligi bilan sintetik preparatlardan ajralib turadi. Shuning uchun xam maxalliy xom ashyolardan foydalangan xolda yangi, samarador, zaharsiz, arzon dori turlarini yaratish va uni tibbiyotga tatbiq etish hozirgi davrning asosiy dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Farmatsiya amaliyotida applikatsion dori turlari sirtga keng qo‘llaniladi. Ma’lumki, dorivor o‘simlik komponentlari asosida dori vositalarini ishlab chiqarish zamonaviy farmasevtik texnologiyaning istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Kasalliklarni davolash jarayoni to‘liq va samarali bo‘lishi qanday dori shaklini tanlashga ko‘p jihatdan bog‘liq hisoblanadi. Uzoq yillik tajriba, izlanishlar va amaliyot shuni ko‘rsatadiki, surtma dori shakli boshqa dori shakllaridan ko‘ra qator afzallik va qulaylik tomonlariga ega. Xususan, surtma tarkibiga turli xil moddalarni kiritish mumkinligi (suyuq, qattiq, yumshoq), mahalliy va rezorbtiv ta’sirga ega ekanligi, dori vositasini terida, to‘qimalarda, organizmning biologik suyuqliklarida yuqori kontsentratsiyada bo‘lishiga erishishi, yuborish qulayligi, iqtisodiy tejamkorligi surtma dori shaklini naqadar ahamiyatliligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holatda, dermatologiya amaliyotida qo‘llash uchun tukli bargli xandeliya suyuq ekstrakti, dorivor tirnoqgul nastoykasi, to‘q qizil exinatseya quruq ekstrakti asosida surtma tarkibi ishlab chiqishni maqsad qilib olindi.

Usul va uslublar. Surtma dori texnologiyasini yaratish uchun biz tomonimizdan quyidagi tarkibli bir necha xil gidrofob, gidrofil va emulsion asoslar tanlandi. Gidrofob (vazelin – 100,0), gidrofil (bentonitli asos – bentonit - 35,0; glitserin - 10,0; tozalangan suv - 50,0gacha; MS-glitslerinli - (MS-6,0; glitserin-20,0; tozalangan suv-100,0 gacha); Jelatin-glitslerinli - (jelatin-3,0; glitserin-10,0; tozalangan suv-100,0 gacha); NaKMS-glitslerinli - (NaKMS-6,0; glitserin-10,0; tozalangan suv-100,0 gacha) Emulsion asos (vazelin – 60; emulgator T2 – 10,0; tozalangan suv - 30,0gacha). Tanlangan asoslardan quyidagi texnologiya bo‘yicha surtma tayyorlandi. Xovonchaga korsatilgan miqdordagi asosning yarmisini solib ustiga avval tirnokgul nastoykasida tuq kizil exinaseya quruq ekstrakti eritib qo‘shildi, yaxshilab aralashtiriladi, so‘ng asosning qolgan qismi solinadi, keyin esa tukli bargli xandeliya suyuq ekstrakti asta sekinlik bilan q o‘shilib bir xil massa hosil bulguncha aralashtirildi. Tayyor bo‘lgan surtmalar qo‘ngir rangli idishga solinib ogzi jips berkitildi. Tayyor bo‘lgan surtmalardan va ularga qo‘llanilgan asoslardan maqsadga muvofiq‘ini tanlash uchun ishimizning birinchi bosqichida surtmalarning sifat ko‘rsatkichlaridan tarkibni bir xilligi va turg‘unligi o‘rganildi. Ularning turg‘unligini SUM-1 apparatida 1500 ay.-tez. da 5 minutga qo‘yib qo‘yildi.

Natijalar. Olingan natijalarga ko‘ra, NaKMS-glitslerinli asosda tayyorlangan surtmada va emulsion asosda tayyorlangan surtmada o‘zgarish kuzatilmadi, gidrofob asosda tayyorlangan surtma qovushqoq massa hosil qildi. MS-glitslerinli glitslerinli asosda tayyorlangan surtma ikki qavatga ajralib qoldi, jelatin-glitslerinli asosda tayyorlangan surtma yopishqoq massa hosil qildi.

Xulosalar. Keyingi izlanishlar NaKMS-glitslerinli va emulsion asoslarda tayyorlangan gellar asosida davom ettiriladi.

255 GIPERTONIYADA QO‘LLANILADIGAN BALZAM SHAKLDAGI BFQ NING OPTIMAL TARKIBINI TANLASH Safarova D.T., Maqsdova F.X.....	258
256 “ГЕМОСТАТ” СУЮҚ ЭКСТРАКТИНИ САҚЛОВЧИ ФИТОПАРДАЛАР ТАРКИБИНИ АСОСЛАШ Гулямова Д.Р., Туреева Г.М., Юнусходжаева Н.А.....	259
257 TUKLI BARGLI XANDELIYA, DORIVOR TIRNOQGUL, TO‘Q QIZIL EXINATSEYA SAQLOVCHI SURTMA TARKIBINI ISHLAB CHIQISH Habibullayeva N. H., Ziyamuhamedova M.M.....	260
258 KOSMETIK LOSON TARKIBINI TANLASH Aripova N.X., Baratova M.B.....	261
259 РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ГОМЕОПАТИЧЕСКОГО РАСТВОРА НА ОСНОВЕ ЛЕКАРСТВЕННОГО РАСТИТЕЛЬНОГО СЫРЬЯ ДЛЯ СТОМАТОЛОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКИ Назарова З.А.....	262
260 YARA BITKAZUVCHI GELNI YARATISH BORASIDAGI TADQIQOTLAR K.R.Xadjimetova, Y.S.Kariyeva.....	262
261 РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ТАБЛЕТОК АНТИАНЕМИЧЕСКОГО ДЕЙСТВИЯ Рахимова Г.Р., Шарипова С.Т., Азимова Н.А., Рахимова О.Р.....	263
262 GELMINTLARGA QARSHI SUYUQ EKSTRAKT TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH M.A.Raximova, I.Sh.Sharipova.....	264
263 “FASTKINT” MALHAMI Xonniyozov J.G‘.....	265
264 РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ГЕЛЯ НА ОСНОВЕ СУХОГО ЭКСТРАКТА СОЛОДКИ (GLYCYRRHIZA GLABRA, L.) Одилова Д.М., Умарова Ф.А.....	266
265 JENSHEN (PANAX GINSENG C.A.MEYER) O‘SIMLIGI ILDIZI QURUQ EKSTRAKTIDAN TABLETKA DORI SHAKLINI ISHLAB CHIQISHDA BOG‘LOVCHI MODDA TURINI TANLASH BO‘YICHA TADQIQOTLAR Toyirova M.J., Raximova O.R.....	267
266 ЛЕКАРСТВЕННЫЕ СРЕДСТВА НА ОСНОВЕ ГОССИПОЛА Турабоев Ш.М., Махмудов С.Д., Рахимов А.Р., Зияев Х.Л.....	268
267 РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ИНТЕРПОЛИМЕРНЫХ КОМПЛЕКСОВ НА БАЗЕ НАТРИЙ КАРБОКСИМЕТИЛЦЕЛЛЮЛОЗЫ Инагамов С.Я., Ходжаева Н.К.....	268
268 ГЕПАТОПРОТЕКТОР ГРАНУЛА ДОРИ ВОСИТАСИ ТАРКИБИДАГИ ДОРИВОР ЎСИМЛИКЛАР ТАХЛИЛИ Н.Э. Вахобова, З.Х. Абдижалилова.....	269
269 ПОЛУЧЕНИЕ И СВОЙСТВА КОНЦЕНТРИРОВАННЫХ ЭМУЛЬСИЙ ИЗ СПИРТОВЫХ ЭКСТРАКТОВ ГОРЬКОГО МИНДАЛЯ Тухтаев Х.Р., Хамидов О.Ж., Мирзаева А.У.....	270
270 MEDICINAL SAGE (SALVIA OFFICINALIS L.) TECHNOLOGY FOR EXTRACTING DARK EXTRACT FROM THE LEAF Z.A.Nazarova, M.Sh.Shuhratova.....	271
271 РАЗРАБОТКА КАПСУЛ СУХОГО ЭКСТРАКТА CICHORIUM INTYBUS L. С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МАТЕМАТИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ Бекчанов Х.К., Камбаров Х.Ж., Жалилов У.М.....	272
272 “ANTIGELMINT” KAPSULA TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH Fayzullaeva N.S., Tashmuxamedova M.A., Butxanova N.R.....	273